

OILA MUHITINING BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

Zaripova Nigina Ulug'bek qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada oila muhitining bola shaxsining shakllanishiga ta'siri ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Maqolada oila – shaxs ijtimoiylashuvining birlamchi muhiti sifatida yoritilib, uning psixologik, ijtimoiy va pedagogik xususiyatlari keng ochib berilgan. Shuningdek, ota-onaning pedagogik madaniyati, tarbiya uslublari, milliy qadriyatlarning o'рни, oila va maktab hamkorligi hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'siri ilmiy manbalar asosida izohlangan. Bola rivojlanishining turli bosqichlarida oila muhitining o'ziga xos ta'siri tahlil qilinib, nosog'lom oila muhitining salbiy oqibatlarini ham yoritilgan. Maqola yakunida samarali oila tarbiyasini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari va pedagogik shart- sharoitlari bo'yicha xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Oila pedagogikasi, oila muhiti, shaxs shakllanishi, bola tarbiyasi, ijtimoiylashuv, pedagogik madaniyat, tarbiya uslublari, milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, oila va maktab hamkorligi, zamonaviy texnologiyalar.

Kirish

Inson shaxsining shakllanishi murakkab, ko'p bosqichli va uzluksiz jarayon bo'lib, u biologik, ijtimoiy va pedagogik omillar ta'sirida rivojlanadi. Ushbu omillar orasida oila muhitining o'рни alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bola dunyoga kelgan ilk kunlardan boshlab aynan oila muhitida yashaydi, rivojlanadi va dastlabki ijtimoiy tajribani aynan shu yerda egallaydi. Oila jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim ijtimoiy bo'g'ini sifatida shaxsning ma'naviy, axloqiy va psixologik shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Pedagogika va psixologiya fanlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni

ko‘rsatadiki, bolaning keyingi hayoti, uning dunyoqarashi, xulq-atvori, jamiyatdagi o‘rni ko‘p jihatdan oilada olgan tarbiyasiga bog‘liqdir. Shu sababli oila pedagogikasi fanida oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini o‘rganish, uning shaxs rivojiga ta‘sir mexanizmlarini tahlil qilish muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Shaxs ijtimoiylashuvi – bu insonning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy tajriba va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonidir. Ushbu jarayonning boshlanish nuqtasi aynan oila hisoblanadi. Bola o‘z hayotining dastlabki yillarida jamiyat bilan bevosita emas, balki oila orqali aloqaga kirishadi. Shu bois oila bolaning “birinchi maktabi” sifatida e‘tirof etiladi.

Mashhur pedagog A.S. Makarenko o‘z asarlarida oilaning tarbiyaviy rolini yuqori baholab, tarbiyaning samaradorligi ota-onaning shaxsiy namunasiga bog‘liqligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, bola ko‘proq nasihat orqali emas, balki ota-onaning kundalik hayotdagi xulq-atvoriga qarab tarbiyalanadi. Demak, oila muhitida mavjud bo‘lgan qadriyatlar, munosabatlar va xulq normalari bevosita bola ongigasingib boradi.

L.S. Vygotskiy esa bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ilmiy asoslab bergan. Unga ko‘ra, bolaning rivojlanishi “yaqin rivojlanish zonasi” orqali amalga oshadi, ya‘ni kattalar bilan muloqot va hamkorlik jarayonida bola yangi bilim va ko‘nikmalarni egallaydi. Bu jarayonda oila muhitining roli beqiyosdir. Oila muhiti murakkab tizim bo‘lib, u bir nechta o‘zaro bog‘liq omillardan tashkil topadi. Ushbu omillar bola shaxsining shakllanishiga turli darajada ta‘sir ko‘rsatadi.

Avvalo, oiladagi psixologik muhit muhim ahamiyatga ega. Agar oilada mehr-muhabbat, o‘zaro hurmat, ishonch va qo‘llab-quvvatlash hukm sursa, bola o‘zini xavfsiz va himoyalangan his qiladi. Bu esa uning ruhiy barqarorligini ta‘minlaydi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Aksincha, janjalli, ziddiyatli muhitda ulg‘aygan bolalarda qo‘rquv, ishonchsizlik, agressivlik kabi salbiy sifatlar shakllanishi mumkin.

Ikkinchi muhim omil – ota-onaning tarbiya uslubidir. Ilmiy adabiyotlarda demokratik, avtoritar va liberal tarbiya uslublari ajratiladi. Demokratik uslubda ota-ona

va bola o'rtasida o'zaro hurmat va hamkorlik mavjud bo'ladi, bola fikri inobatga olinadi. Bu esa mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli shaxsni shakllantiradi. Avtoritar uslubda esa qat'iy nazorat ustun bo'lib, bola ko'pincha bosim ostida tarbiyalanadi, natijada unda qo'rquv yoki isyonkorlik paydo bo'lishi mumkin. Liberal uslubda esa nazoratning sustligi bolaning intizomsiz bo'lib ulg'ayishiga olib keladi. Oila muhitining yana bir muhim jihati – ota-onaning pedagogik madaniyatidir. Pedagogik madaniyat deganda ota-onaning tarbiya jarayoniga ongli, ilmiy asoslangan yondashuvi tushuniladi. Pedagogik savodxonlik yuqori bo'lgan ota-onalar bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiya olib boradilar. Bu esa tarbiya samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Ammo ko'plab tadqiqotchilar, jumladan Sh.A. Amonashvili, moddiy ta'minotdan ko'ra ma'naviy muhit muhimroq ekanligini ta'kidlaydi. Chunki boy, ammo e'tiborsiz oilada ulg'aygan bola ma'naviy jihatdan yetuk bo'lmasligi mumkin, aksincha oddiy, ammo mehrga boy oilada tarbiyalangan bola barkamol shaxs bo'lib yetishadi. Bolaning rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi va har bir bosqichda oila muhitining ta'siri o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Maktabgacha yosh davrida bola asosan taqlid orqali o'rganadi. U ota-onaning harakatlarini kuzatadi va takrorlaydi. Shu sababli bu davrda ota-onaning xulqi, nutqi, muomalasi bola uchun asosiy namuna hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim davrida bola yangi ijtimoiy muhitga – maktabga kiradi. Bu davrda oila bolaning o'qishga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Agar ota-ona ta'limga ijobiy qarasa, bolani qo'llab-quvvatlasa, unda bilim olishga qiziqish ortadi. O'smirlik davri esa murakkab psixologik jarayonlar bilan tavsiflanadi. Bu davrda bola mustaqillikka intiladi, o'z "men"ini anglashga harakat qiladi. Agar oilada ishonchli va ochiq muloqot mavjud bo'lsa, o'smir to'g'ri yo'lni tanlaydi. Aks holda u salbiy ijtimoiy guruhlar ta'siriga tushib qolishi mumkin.

Nosog'lom oila muhiti bolaning shaxs sifatida shakllanishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oiladagi ziddiyatlar, beparvolik yoki

haddan tashqari qat'iylik bolada turli muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday bolalarda ko'pincha past o'zini baholash, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari, agressiv xulq-atvor kuzatiladi.

A.S. Makarenko tarbiyadagi xatoliklar jamiyatdagi ko'plab muammolarning ildizi ekanligini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, jinoyatchilik, deviant xulq-atvor kabi holatlarning ko'pida nosog'lom oila muhitining ta'siri kuzatiladi. Zamonaviy pedagogika oilada samarali tarbiya olib borish uchun bir qator ilmiy asoslangan tamoyillarni taklif etadi. Ular orasida eng muhimlari – mehr va talabchanlik uyg'unligi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, ijobiy motivatsiya, hamkorlik va muloqotdir.

Mehr va talabchanlik uyg'unligi shuni anglatadiki, bola bir vaqtning o'zida ham sevgi, ham tartib- intizomni his qilishi kerak. Faqat mehr yoki faqat qat'iylik asosida qurilgan tarbiya bir tomonlama bo'lib qoladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv esa har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Har bir bola o'ziga xos bo'lib, unga bir xil talab qo'yish pedagogik jihatdan to'g'ri emas. Ochiq muloqot esa oilada sog'lom psixologik muhitni ta'minlaydi. Bola o'z fikrini erkin bildira oladigan muhitda ulg'aysa, u mustaqil va ijtimoiy faol shaxs bo'lib shakllanadi.

Oila tarbiyasida milliy qadriyatlar muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Har bir xalqning o'ziga xos urf-odatlarini, an'analari va ma'naviy merosi mavjud bo'lib, ular avloddan-avlodga oila orqali uzatiladi. Aynan oila bola ongiga milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi tushunchalarni singdiradi.

Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya bolada ijtimoiy mas'uliyatni oshiradi va uni jamiyatning faol a'zosiga aylantiradi. Masalan, o'zbek oilalarida “kattaga hurmat, kichikka izzat” tamoyili muhim o'rin tutadi. Bu tamoyil bola shaxsida hurmat, kamtarlik va odob kabi sifatlarni shakllantiradi. I.A. Karimov o'z asarlarida ma'naviyat va qadriyatlarning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini alohida ta'kidlab, ularni jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida baholaydi. Uning fikricha, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash avvalo oiladan

boshlanadi.

Shuningdek, xalq pedagogikasi tajribasi ham oila tarbiyasining boy manbai hisoblanadi. Maqollar, ertaklar, rivoyatlar orqali bolaga hayotiy tajriba, axloqiy me'yorlar singdiriladi. Bu esa bolaning tafakkurini kengaytiradi va uni to'g'ri yo'lga yo'naltiradi. Bola tarbiyasi faqat oila bilan cheklanib qolmaydi, balki maktab bilan uzviy hamkorlikda amalga oshiriladi. Oila va maktabning hamkorligi ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Pedagogik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, agar oila va maktab o'rtasida uzviy aloqa mavjud bo'lsa, bola ikki xil qarama-qarshi talablar orasida qolmaydi. Bu esa uning psixologik barqarorligini ta'minlaydi. Ota-onaning maktab hayotidagi faolligi, o'qituvchilar bilan muntazam muloqoti bolaning o'qishga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Masalan, ota-ona farzandining darslariga qiziqsa, uning yutuqlarini rag'batlantirsa, bola bilim olishga intiladi. Aksincha, oila va maktab o'rtasida aloqa sust bo'lsa, bola nazoratsiz qoladi, bu esa uning o'qishdagi muvaffaqiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli zamonaviy pedagogika oila va maktab hamkorligini ta'lim-tarbiyaning muhim sharti sifatida ko'radi. Axloqiy tarbiya oila pedagogikasining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Bola axloqiy me'yorlarni avvalo oilada o'zlashtiradi. Halollik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, mehr-shafqat kabi sifatlar oilada shakllanadi. Pedagog olimlarning fikricha, axloqiy tarbiya faqat so'z bilan emas, balki amaliy faoliyat orqali amalga oshirilishi kerak. Ota-onaning o'zi halol bo'lsa, bola ham halollikka o'rganadi. Agar ota-ona yolg'on gapirsa yoki adolatsizlik qilsa, bola ham shuni odatiy hol deb qabul qiladi.

Axloqiy tarbiyada quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- Shaxsiy namuna
- Tushuntirish
- Rag'batlantirish
- Nazorat

Bu metodlar uyg'un holda qo'llanilganda bola ongida mustahkam axloqiy qarashlar

shakllanadi. Mehnat tarbiyasi ham shaxs shakllanishining muhim omillaridan biridir. Bola mehnatga bo'lgan munosabatni aynan oilada o'rganadi. Agar u kichik yoshdan boshlab oddiy uy yumushlariga jalb etilsa, unda mas'uliyat, mustaqillik va mehnatsevarlik sifatlari rivojlanadi. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, mehnat tarbiyasi bolaning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mehnat jarayonida bola sabr-toqatni, qiyinchiliklarni yengishni o'rganadi. Aksincha, mehnatga o'rgatilmagan bolalarda dangasalik, mas'uliyatsizlik kabi salbiy sifatlar shakllanishi mumkin. Shu sababli ota-onalar farzandlarini yoshiga mos mehnat faoliyatiga jalb etishlari zarur.

Bugungi globallashuv davrida axborot texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil qurilmalar bolalarning hayot tarziga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon oila tarbiyasiga ham yangi talablar qo'yimoqda. Bir tomondan, axborot texnologiyalari bolaga keng imkoniyatlar yaratadi: u yangi bilimlarni tez o'zlashtiradi, dunyoqarashi kengayadi. Ikkinchi tomondan esa nazoratsiz foydalanish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, ortiqcha vaqtni telefon yoki kompyuter oldida o'tkazish bolaning jismoniy va ruhiy rivojiga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli ota-onalar zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni nazorat qilishlari, bolaga to'g'ri yo'naltirish berishlari zarur. Pedagogik jihatdan qaraganda, texnologiyalardan foydalanishda me'yor va maqsadlilik tamoyiliga amal qilish muhimdir.

Ota-onalar farzandlariga:

1. Foydali va zararli axborotni farqlashni
2. Vaqtni to'g'ri taqsimlashni
3. Internet madaniyatini

o'rgatishlari zarur. Bu esa bolani zamonaviy jamiyat talablariga mos holda tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan barcha ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, oila muhitining bola

shaxsining shakllanishidagi roli ko‘p qirrali va chuqur mazmunga ega. Oila nafaqat tarbiya maskani, balki shaxsning ma’naviy, axloqiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi. Sog‘lom oila muhiti, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya, ota-onaning pedagogik madaniyati, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish va maktab bilan hamkorlik – bularning barchasi barkamol shaxsni shakllantirishda muhim omillardir. Shu sababli jamiyat taraqqiyoti nuqtai nazaridan oilaga e’tibor qaratish, uni qo‘llab- quvvatlash va ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Makarenko A.S. – Pedagogik asarlar, Moskva, 1988
2. Vygotskiy L.S. – Psixologiya rivojlanishi nazariyasi, Moskva, 1982
3. Amonashvili Sh.A. – Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asoslari, Tbilisi, 1990
4. Karimov I.A. – Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch, Toshkent, 2008
5. Xasanboyeva O. – Oila pedagogikasi, Toshkent, 2016
6. Yo‘ldoshev J. – Pedagogika nazariyasi, Toshkent, 2014
7. Kon I.S. – Bola shaxsining psixologiyasi, Moskva, 1989
8. Davletshin M.G. – Umumiy psixologiya, Toshkent, 2005
9. Qodirov B.R. – Yosh psixologiyasi, Toshkent, 2010
10. Nishonova Z.T. – Oila psixologiyasi, Toshkent, 2012
11. Hasanboyeva O. va boshqalar – Oila pedagogikasi, Toshkent, 2018 (yangilangan nashr)
12. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. – Pedagogika asoslari, Toshkent, 2010